

Institutimizga Hamid Olimjon mahallasining faol yoshlarini tashrifi

Bugun "Mahalla bilan ishlash yo'l haritasining mahalalarda sportga qiziquvchi yoshlarni aniqlab institut sport bazasidagi to'garaklarga jalb qilish" bo'yicha tasdiqlangan reja asosida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Sport zaliga Hamid Olimjon Mahalla Fuqarolar Yig'inidan bir guruh yoshlar tashrif buyurishdi. Tadbirda institutning Halqaro aloqalar bo'yicha prorektori A. Saloxiddinov, Sirtqi bo'lim boshlig'i B.Erkinov va Elektrotexnika va Mexatronika kafedrasini mudiri R.Baratov va kafedra professor o'qituvchilari bilan birgalikda Hamid Olimjon Mahallasi raisi o'rinbosari M.Shirmuxammedovalar ishtirok etishdi.



Tadbir boshida prorektor A.Saloxiddinov so'zga chiqib, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish va institutda mavjud turli to'garaklarda faol qatnashish kerakligini ta'kidlab o'tdi. Rektorimiz tomonidan taqdim etilgan kitoblar mahalla yoshlariga tadbir davomida sovg'a sifatida berildi. Tadbirda mahalla yoshlari shashka - shahmat va mini futbol musobaqalarda ishtirok etdi va bu tadbirdan o'ta minnatdorligini izhor etdi.

TIQXMMI matbuot xizmati